**<u>Germaniya hududida bo‘lish to‘g‘risidagi qonunning 18-moddasi, 2-bandi, 4a-soniga muvofiq muhim ma'lumotlar - aniq ish taklifining mavjudligi</u>**

Chet el fuqarosi va uning ish beruvchisi viza arizasi asosidagi mehnat faoliyati haqiqattan ham ko‘zda tutilganiligini tasdiqlaydi, ya’ni aslida, Germaniya hududida bo‘lish to‘g’risidagi qonunning § 18-moddasi 2-bandiga muvofiq amalga oshirishga qaratilgan „aniq ish taklifi“ mavjud va bu yerda gap Germaniya hududida bo‘lish to‘g’risidagi qonunning 4-bobiga ko‘zda tutilgan vaqtincha yashash uchun ruxsat olish maqsadida soxta mehnat shartnomasi haqida ketmayapti.
Uni amalga oshirish niyatisiz ish haqini to‘lashning o‘zi etarli emas.

Yolg'on bayonotlar “noto‘g’ri ma'lumot” bo‘lib, bunday ma’lumot berganlar Germaniya hududida bo‘lish to‘g’risidagi qonunning § 95-moddasi 2-bandiga binoan jazolanadi. Harakatlar moddiy manfaat olishga qaratilgan bo‘lsa u holda huquqbuzarlik Germaniya hududida bo‘lish to‘g’risidagi qonunning 96-moddasi, 2-bandi, 2-qismiga muvofiq jazolanadi. Jinoyatning tegishli kvalifikatsiya belgilari ham qo‘llaniladi.

Konsullik (viza) bo‘limlari va Chet elliklar ishlari bo‘yicha mas’ul idoralar, madomiki haqiqiy mehnat munosabatlari o‘rnatilganligiga shubha uyg’otadigan aniq belgilar mavjud bo‘lsa va ularning orqasida soxta va shu sababli Fuqarolik Kodeksining 117-moddasiga muvofiq haqiqiy bo‘lmagan mehnat shartnomasi tuzilgan bo‘lsa, huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat qilishlari mumkin.

Quyida imzo qo‘yish orqali men yuqoridagi ma’lumotlarni e’tiborga olganimni tasdiqlayman va Germaniya hududida bo‘lish to‘g’risidagi qonunning § 18-moddasi 2-bandi № 4a-qismiga muvofiq shuni ma’lum qilamanki, menda Germaniya hududida bo‘lish to‘g’risidagi qonunning § 18-moddasi, 2-bandi № 1-qismiga muvofiq maxsus ish taklifi hamda men muayyan ishni qabul qilish niyatidaman.

______________________ ______________________

joy, sana imzo